

## Jaholatga qarshi ma'rifat

Insoniyat qadim-qadimdan buyon jaholatga, bidat va xurofotga qarshi ma'rifat bilan kurashishga intilib keladi. Chunki, unga qarshi kuch ishlatsa, zo'ravonlik vositasida kurash olib borilsa, jaholat avvalgidan batarroq yuchayib ketishi mumkin. Jaholatga qarshi ma'rifat usuli hozirgi davrda, bashariyat taraqqiyot borasida juda ilgarilab ketgan XXI asr ibtidosida g'oyat muhim kasb etmoqda. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti fakultetining "Elektr texnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasi tashabbusi bilan O'zbekiston musulmonlar idorasi vakili islomshunos olim, xatib T.Zoirov ishtirokida "Jaholatga qarshi ma'rifat" mavzusida davra suhbat o'tkazildi. Tadbirda fakultet dekani A.Isakov, yoshlari bilan ishslash bo'yicha dekan o'rribbosari O.Habibullaev, o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rribbosarlari O.Matchonov va A.Botirov, fakultet professor-o'qituvchilari hamda talaba-yoshlari ishtirok etishdi.



Hozirgi vaqtida ko'z o'ngimizda dunyoning turli joylarida ro'y berayotgan iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasidagi chuqur o'zgarishlar, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshig'oya, jaholatqaqarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hammamizga ma'lumki harqanday kasallikning oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga qarshi kurashuvchi immunitet hosil qilinadi. Shunday ekan biz yoshlari ongida ham ona Vatanimizga bo'lgan muhabbatimiz, qadimiy boy tariximizga, ota-bobolarimiz kabi o'z dinimizga sadoqat tuyg'ularini yanada shakillantirishimiz, kelajak avlodlarga yetkazib, kerak bo'lsa ularning ongida va qalbida mafkuraviy, ma'naviy immunitetni kuchaytirishimiz muhim o'rinni tutadi.



Birinchi navbatda hudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, manfaatparastlik va korrupsiya, o'zgalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay halos etish to'g'risida chuqur o'ylashimiz kerak. Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Chunki, ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy - siyosiy barqarorlik vujudga keladi, hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamolligiga va uning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zamin bo'lib xizmat qiladi. Bu tushunchalar mohiyatidan inson ahloqi va odobini, shakllangan barcha ijobjiy hislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqaralarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi. Bular barkamol inson fazilatlariga qarshidagi aniq va to'liq ta'rifdir.



Ma'naviy-ma'rifiy barkamollikning qirralari va mezonlari qatoriga mustaqillik tafakkuri va milliy iftixon ham kiradi. Mustaqillik tafakkurini har bir kishida shakllantirish nihoyatda zarur. Toki, mustaqillik tafakkuri va milliy iftixon, g'urur bo'lmash ekan, fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlar jo'sh urmaydi. Ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalash vazifasiqanchalik murakkab bo'lmashin uni amalga oshiranimizdagina pirovard maqsadga erishish mumkin. Xulosa ornida shuni aytish mumkinki, inson o'zligini anglashi dahldorligini bilishi atrof muhitdagi vogeliklarga befarq bo'lmashdan, dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur o'rganish va bilish doimo izlanishda bo'lsa albatta "Jaholatga qarshi ma'rifat" kurasha oladi.

**"Qishloq va suv xo'jaligi  
energiya ta'minoti" fakultetining Yoshlar  
bilan ishslash dekan o'rribbosari O.Habibullaev**

